

“KASB TANLASH JARAYONIDA PSIXOLOGIK OMILLAR”

**PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PROCESS OF CHOOSING A
PROFESSION**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ПРОЦЕССЕ ВЫБОРА
ПРОФЕССИИ**

Andijon davlat pedagogika insituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

o'qituvchisi

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna

Sotvoldiyeva Firdafsi Dilmurodjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

1-bosqich pedagogika yo'nalishi talabasi.

Telefon raqam +998 97 392 12 15

Elektron pochta:firdavissotvoldiyeva

[@gmail.com](mailto:firdavissotvoldiyeva@gmail.com)

@Miss_Dilmurodjanovnaa

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb tanlash jarayonining psixologik mexanizmlar va shaxsning kasbiy o'zini aniqlashi (professional identifikatsiya) ga ta'sir etuvchi individual hamda ijtimoiy-psixologik omillar tizimli va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kasb tanlash- shaxsning rivojlanish dinamikasini, motivatsion tuzulmasini, kognitiv resurslarini va ijtimoiy moslashuv strategiyalarini aks ettiruvchi murakkab psixologik jarayon sifatida qaraladi. Mazkur jarayonda temperament, xarakter aksentuatsiyalari, qobiliyatlari tipologiyasi, shaxsning markaziy qadriyatlar tizimi, maqsad qo'yish kompetensiyasi hamda ichki va tashqi motivatsiyaning strukturaviy

xususiyatlari yetakchi determinantlar sifatida ko'rib chiqiladi. Umuman olganda, ish kasb tanlash jarayonini psixologik nuqtayi nazardan kompleks yondashuv orqali talqin etib, shaxsning kasbiy rivojlanishini belgilovchi omillari chuqur ilmiy asosda tahlil qiladi va ushbu jarayonni ilmiy-amaliy jihatdan optimallashtirish bo'yicha konseptual xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kasbiy yo'nalish, psixologik omillar, qiziqishlar, temperament, qadriyatlar tizimi, shaxsiy o'z-o'zini baholash, tengdoshlar bosimi, kasbiy barqarorlik, motivatsiya.

Аннотация: В данной научной работе системно и теоретически анализируются психологические механизмы процесса выбора карьеры а также индивидуальные и социально-психологические факторы, влияющие на профессиональное самоопределение личности (профессиональную идентификацию). Выбор карьеры рассматривается как сложный психологический процесс, отражающий динамику развития личности, мотивационную структуру, когнитивные ресурсы и стратегии социальной адаптации. В качестве ведущих детерминант при этом рассматриваются темперамент, акцентуации характера, типология способностей, центральная система ценностей личности, компетентность в целеполагании и структурные особенности внутренней и внешней мотивации. В целом, в работе комплексно интерпретируется процесс выбора карьеры с психологической точки зрения, на глубокой научной основе анализируются факторы, определяющие профессиональное развитие личности, и даются концептуальные выводы по научной и практической оптимизации этого процесса.

Ключевые слова : выбор карьеры, направление карьеры, психологические факторы, интересы, темперамент, система ценностей, личная самооценка, давление со стороны сверстников, стабильность карьеры, мотивация.

Abstract: This article systematically and theoretically analyzes the psychological mechanisms of the career choice process and the career choice process

and the individual and socio-psychological factors that affect the professional self-determination of a person, professional identification. Career choice is considered a complex psychological process that reflects the dynamics of a person's development, motivational structure, cognitive resources and social adaptation strategies. In this process, temperament, character accentuations, typology of abilities, the person's central value system, goal-oriented competence and structural features of internal and external motivation are introduced as leading determinants. In general, the work interprets the process of career choice from a psychological point of view through a complex approach, analyzes the factors determining the professional development of a person on a deep scientific basis and gives conceptual conclusions on the scientific and practical optimization of this process.

Keywords: Career choice, career direction, psychological factors, interests, temperament, value system, person self-esteem, peer pressure, career stability, motivation.

Kirish: Har bir inson hayotida kasb tanlash muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayonda nafaqat moddiy ta'minot, balki shaxsning o'zini namoyon etishi, ijtimoiy moslashuvini ham belgilaydi. Kasb tanlashda insonning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va atrof-muhit ta'siri kabi psixologik omillar katta rol o'ynaydi. Ushbu mavzu aynan shu omillarning mohiyatini ochish va ularning kasbiy yo'nalish tanlashdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism: Kasb tanlashda bir necha asosiy psixologik omillar muhim o'rin tutadi.

1. Qiziqish va motivatsiya – insonning ichki istaklari va faoliyatiga bo'lgan ishtiyoqi. Inson faoliyatini harakatlantiruvchi ikki muhim ichki omillardan biridir. Qiziqish – bu insonning biror faoliyati, mavzu yoki jarayonga balki kasblarga bo'lgan ichki qiziqishi, e'tibori va yo'nalishi. Qiziqish bo'lgan inson, o'sha ishni zavq bilan

bajaradi, hamma narsani o'rganishga doimo tayyor holda bo'ladi va vaqt o'tganini sezmaydi.

Qiziqish va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlik- qizish va motivatsiyani kuchaytiradi, motivatsiya esa qiziqishni davomli qiladi. Ikkalasi birgalikda insonning faoliyatiga ishtiyoq, sabr va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

2.Qobilyat va salohiyat – tanlangan kasbga mos intellektual, ijodiy yoki jismoniy imkoniyatlar.Qobilyat – bu insonning tug'ma yoki orttirilgan intellektual, ijodiy, jismoniy yoki ijtimoiy imkoniyatlari bo'lib, ular muayyan faoliyatni samarali bajarishga yordam beradi.

Salohiyat- bu insonning hali to'liq namoyon bo'lmagan, ammo rivojlanish imkoniyatiga ega ichki kuchi hamda iste'dodi va imkoniyatlar majmui. Salohiyat rivojlanishi uchun sharoit, mashq va to'g'ri yo'naltirish kerak.

Qobiliyat va salohiyat tanlangan kasbga albatta mos bo'lsa, inson ya'ni shaxs o'z kasbini oson o'zlashtiradi, yuqori natijalarga erishadi, ijodiy fikrlaydi va kasbiy o'sish imkoniyatlari keng bo'ladi.

3.Xarakter xususiyatlari - faoliyat uslubini belgilovchi individual farqlar.

Xarakter xususiyatlari – bu insonning o'ziga xos xulq-atvorini, munosabatlarini va faoliyat uslubini belgilovchi individual psixologik farqlardir.

Xarakter shaxsning turli vaziyatlarda qanday harakat qilishini ko'rsatib beradi.Misol uchun: ish uslubi va ma'suliyati darajasi, odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishi ayniqsa hamkasblari bilan. Qaror qabul qilishda tezligi hamda mustahkamligi bilan alohida ajralib turadi. Bundan tashqari stressga bardoshlilik, liderlik yoki boysunuvchanlik qobilyati.

U insonda bo'lishi kerak bo'lgan xususiyatlar*

Tirishqoqlik- ishni oxirigacha yetkazish odati;

Mas'uliyatlilik- topshiriqlarga jiddiy yondashish;

Tashabbuskorlik- yangi g'oyalar taklif qilish;

Tinchliksevarlik – mojarolardan qochish;

Sabrlilik – qiyin vaziyatlardan o'zini tuta olish.

4.O'zini anglash-insonning o'z imkoniyatlarini qanday ko'rishi, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi.

O'zini anglash birinchidan, odamning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib boorish bo'lsa, ikkinchidan, uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Odamzod o'zini o'zi anglar ekan, o'zida bor imkoniyatlarni yanada rivojlantiradi. Odam o'zini anglagandan keyin yangi qirralarini ochadi. O'z qadr-qiymati va boshqalarning fikri obyekt sifatida qaralishini inson hayoti davomida to'xtamaydi. Bunda har bir inson o'zligini toppish uchun uni to'g'ri yo'lga boshlaydigan ustoz, hamroh yoxud to'g'ri tarbiya bergan ota-onaga muhtoj bo'ladi. Yuqoridagi sabablarsiz odamzod o'zligini anglamasdan oddiy hayot kechirib, o'zidan yaxshi nom qoldirmasdan ketishi mumkin.

O'ziga bo'lgan ishonch darajasi. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchi hayotda katta rol o'ynaydi: jamiyatda o'z o'rnini topishida, munosabatlarda baxtni his qilishida, omad kulib boqishida va hokoza.

Ishonch- tabiiy narsa. Hech kim ishonchsizlik bilan dunyoga kelmaydi. Go'dak bolaga e'tibor bering, u o'z-o'zidan emaklay boshlaydi, qiziquvchanlik bilan atrofidagi narsalarga qo'l uzatadi, qo'yib bersangiz, sherning qafasiga ham qo'rqqmasdan kirib borishi mumkin. Qo'rquv, xavotir begona bo'lgan uchun ham bolalarda hammasi tabiiy kichadi. Ishonchsizlik keyinchalik paydo bo'ladi, ya'ni u orttirilgan muammo. Tarbiya, yomon tajriba, ijtimoiy muammolar, ruhiy va jismoniy jarohatlar uning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Ushbu omillar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, kasb tanlashning psixologik murakkab tizimini hosil qiladi. Agar inson o'z qobiliyatlari va

qiziqishlariga mos kasbni tanlasa, u o'z faoliyatidan zavq oladi, ijodiy yondashadi va ko'p muvaffaqiyatga erishishadi .

Kasb tanlash arafasida bo'lgan yoshlarga tavsiyalar.

1.Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqishlari kerak.

Maktabni bitirish arafasida o'spirin kasblar haqida xató va noto'g'ri tassavurga ega bo'ladilar. Ko'pincha ular tanlagan kasblarini faqat ijobiy tomonlarini yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'radilar. Buning uchun ota-onalar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlab olishlari uchun yordam berishlari kerak. Shuning uchun 9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zingiz tanlagan yo'nalishlari bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi "Ochiq eshiklar" kuniga tashrif buyurishni unutmagan holda qaror qabul qilishlari lozim.

2.O'z xohishlaringizni tizimlashtiring.

Ba'zi soha mutaxassislari maslahat berganidek, o'zingiz uchun stol tayyorlashingiz mumkin. Sizni yuragingizga yaqin bo'lgan kasblarni vertikal ravishda va faoliyatingizda nimani xohlashingizni gorizantal ravishda joylashtirishga harakat qiling. Jadvalni iloji boricha batafsil to'ldirishingiz kerak. Agar tanlagan kasb sohasi va ishga qo'yilgan talablar bir-biriga mos keladigan bo'lsa "+", "-“ ishoralarini qo'yishingiz lozim. Shunday qilib, tanlovni amalga oshirishga yordam beradigan yoki tanlov doirasini aniqlashga qaratilgan tasvir shakllantiradi.

3.Zaxira aerodromi.

Sizni o'zingiz xohlagan aniq tanlovingiz bo'lishi bilan birga har holda qo'shimcha ravishda e'tiborga olishingiz kerak bo'lgan kasbingiz ham bo'lishi kerak. Hayotni oldindan aytib bo'lmaydi chunki har qanday narsa yuz berishi mumkin. Shu bois, tanlagan universitet va yo'nalishingizga qobiliyatlaringiz mos kelmaganligi sababli kira olmay ko'nglingizda jarohat hosil bo'ladi. Siz shunchalik ertalab uyg'onishingiz mumkin va o'zingizni tanlovingizdan xafsalangiz pir bo'lib, uni o'zgartirishga harakat qiling.

4.Qaror faqat mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ota – onangiz tomonidan berilgan maslahatlar foydali lekin ularni fikri yakuniy qaror bo'lmasligi kerak. Psixologlarning ta'kidlashicha, biz ko'pincha atrof-muhitga, qarindoshlar, o'qituvchilar, do'stlarimizga e'tibor qaratamiz. Odatda bunday vaziyatda ikkita yo'ldan boramiz ya'ni ularning fikriga amal qilamiz yoki aksincha.

5.Kasb tanlashda oilaviy an'anani davom ettirish shart emas.

Siz o'zingizni ishingiz undagi imkoniyatlar qulayliklar shuning bilan birga farzandingiz uchun muvaffaqiyatli martaba haqida oldindan bashorat qilib gapirishingiz mumkin. Agar farzandingiz sizni yoki otasini kasbini davom ettirmoqchi bo'lsa bu juda yaxshi. Lekin majbur qilishingiz o'zi noto'g'ri. Agar inson o'zi yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullangandan keyin o'zini baxtsizdek his qiladi.

Shunday qilib fikrlarimiz asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz.

-Oila a'zolaringiz va do'stlaringiz bilan maslahatlashilgan holda ularning fikriga ko'ra, siz tanlagan kasbingiz o'zingizga mos keladi;

-Ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi va maxsus manbalar (adabiyotlar internet va boshqalar) sizga jamiyatda ehtiyoji yuqori bo'lgan yo'nalishlar haqida ma'lumotlar beradi;

-O'zingiz xohishingiz va hayotingizdagi ustanovkalaringizni esingizga oling;

-Olingan materiallarni har tomonlama ko'rib chiqing, yaxshilab tahlil qiling va o'zingizga "Hayotda menga nima kerak?" degan savolga javob berishga harakat qiling.

-Imkoniyatingiz bo'lsa, kasb tanlash bo'yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashishingiz zarur.

Xulosa: Kasb tanlash bu faqat moddiy manfaat yoki tasodifiy tanlov emas, balki insonning ruhiy dunyosi, qiziqishlari va shaxsiy imkoniyatlari bilan chambarchas

bog'liq psixologik jarayondir. Shu sababli, yoshlar kasb tanlash jarayonida o'zini qobiliyatlarini chuqur o'rganib, psixologik jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimova V.M. Umumiy psixologiya.
- 2.G'oziyev E. G Psixologiya asoslari.
- 3.M G'aniyeva Kasb tanlash psixologiyasi.
- 4.Azizxon Bohodirov Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti.
- 5.Internet manbalari: www.ziyonet.uz,psixologiya.uz